



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



## YASHIL IQTISODIYOTNING MINTAQALAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Murodillayev Sardorbek Bahodir o‘g‘li

*Qarshi davlat texnika universiteti Mustaqil tadqiqotchisi*

[Sardorbek99m@gmail.com](mailto:Sardorbek99m@gmail.com)

*Tel: +998908706000*

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyoti va siyosiy maydonda yashil iqtisodiyotga o‘tish (Green Economy transition) – resurslarni samarali, barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz boshqarish siyosati – strategik ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu yo‘nalish mintaqaga darajasida ham muhim bo‘lib, ayniqsa energetika sektori va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik jihatdan ahamiyatli hisoblanaihatlari bilan ayniqsa dolzarbdir.

Energiyaga qaramlik va xavfsizlik muammosi O‘zbekiston Respublikasining energetika balansida an’anaviy yoqilg‘ilarga (tabiiy gaz, ko‘mir) katta ulush bo‘lishi muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, 2019 yilda mamlakatdagi elektr energiyasi ishlab chiqarishining ~85 % termik gaz manbalariga tayanib amalga oshirilgan<sup>8</sup>. Shu sababli, energetika diversifikatsiyasi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini kenglatish davlat va mintaqalar darajasida strategik jihatdan zaruriy chora hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli sifatida e’tirof etilmoqda. U iqtisodiy o‘sish bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun barqaror yashash sharoitlarini yaratishni o‘zida mujassam etadi. Boshqacha qilib aytganda, yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy faoliyatning ekologik xavfsiz, ijtimoiy adolatli va innovatsion y o‘l bilan olib borilishini ta’minlovchi tizimdir. Yashil iqtisodiyotning mintaqalar iqtisodiyotiga ta’siri, avvalo, yangi iqtisodiy tarmoqlarning paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Mintaqalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh, shamol, biomassa va gidroenergiya asosidagi ishlab chiqarishlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, chiqindini qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalar, ekologik turizm, organik qishloq xo‘jaligi kabi “yashil” sohalar rivojlanib bormoqda. Bu esa nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va mintaqaviy daromad manbalarini ko‘paytirish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyotning yana bir muhim jihat resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashidadir. Zamonaviy ekologik texnologiyalar yordamida suv, energiya va yer resurslari tejab ishlataladi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Jahon banki, Yevropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot dasturi ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali mintaqalarda barqaror investitsion muhit yaratmoqda.

<sup>8</sup> [https://iea.blob.core.windows.net/assets/5a73d058-1c4d-4731-8465-e25e5da3bd3f/SolarEnergyInUzbekistan\\_ARoadmap.pdf.com](https://iea.blob.core.windows.net/assets/5a73d058-1c4d-4731-8465-e25e5da3bd3f/SolarEnergyInUzbekistan_ARoadmap.pdf.com)





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Qishloq hududlarida yashil iqtisodiyotning roli alohida ahamiyatga ega. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ekologik turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali qishloq joylarda iqtisodiy faoliyat ortmoqda. Natijada urbanizatsiya jarayonining keskinlashuvi kamayadi, mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovut qisqaradi. Yashil iqtisodiyot inson kapitalining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Chunki bu sohada faoliyat yuritish yangi bilimlar va malakalarini talab qiladi. Ekologik muhandislik, energiya menejmenti, chiqindilarni qayta ishslash kabi yo‘nalishlar ta’lim tizimida yangi o‘quv dasturlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa mintaqalarda malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni oshirish imkonini beradi.

Ijtimoiy va ekologik jihatdan yashil iqtisodiyot aholining turmush sifatini yaxshilaydi. Atrof-muhitning tozaligi, chiqindilar miqdorining kamayishi va tabiiy resurslarning muhofazasi aholi salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ekologik madaniyat va yashil tafakkurning shakllanishi jamiyatda mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish odatlarini rivojlantiradi. Biroq yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ayrim muammolar ham uchraydi. Eng avvalo, ekologik texnologiyalar dastlabki bosqichda ancha qimmat bo‘ladi. Moliyalashtirish manbalari yetishmasligi, malakali mutaxassislarining kamligi va boshqaruvtizimidagi to‘silalar bu yo‘nalishda taraqqiyot sur’atlarini sekinlashtiradi. Shu sababli davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va xalqaro hamkorlik dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning quyosh energetikasida salohiyati juda yuqori. Texnik jihatdan baholangan quyosh energiya imkoniyatlari ~7,411 PJ ga tengligi aytilgan, bu mamlakatning asosiy energiya ishlatilishidan bir necha barobar kattadir<sup>9</sup>. Shu bilan birga, mamlakatda quyosh paneli importi va sarmoyaviy faoliyat sur’ati keskin oshmoqda: 2023 yilda 3,85 million dona quyosh paneli import qilingan. Bu hol — mamlakatning qayta tiklanadigan energetika sektori bo‘yicha o‘sish yo‘lida ekanligini ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyati o‘zining geostrategik, demografik va iqtisodiy sharoitlari bilan diqqatga sazovor. 2025-yil 1 iyul holatiga viloyatning doimiy aholisi 3 673 755 kishini tashkil etadi<sup>10</sup>. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil 1 yanvar holatida esa 3 560,6 ming kishi bo‘lgan. Bu viloyat aholi soni va zichligi jihatdan energetika ehtiyojlari va ijtimoiy xavfsizlik jihatidan katta ahamiyatga ega.

Viloyatda katta quyosh energetika loyihalarining rejallashtirilishi va amalga oshirilishi mavjud. Masalan, Nishon tumanida 603,519 MW quvvatga ega quyosh PV loyihasi rejallashtirilgan<sup>11</sup>. Boshqa manbalarda esa Nishon tumanidagi quyosh fermasi 500 MW quvvatda 2024 yilda ishga tushirilgani qayd etilgan. Ushbu loyiha viloyat energetika infratuzilmasini kengaytirish va iqtisodiy salohiyatni oshirish imkonini beradi.

<sup>9</sup> <https://www.iea.org/reports/solar-energy-policy-in-uzbekistan-a-roadmap/context-of-renewable-energy-in-uzbekistan.com>

<sup>10</sup> <https://www.qashstat.uz/.com>

<sup>11</sup> <https://www.power-technology.com/marketdata/power-plant-profile-nishon-solar-pv-project-uzbekistan.com>





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Qayta tiklanadigan energetika loyihalari orqali hududga investitsiyalar jalg qilinadi, yangi ish o'rirlari paydo bo'ladi, energetika xarajatlari kamayadi va energetika importiga bo'lgan qaramlik pasayadi. Bu esa natijada mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlaydi. Shu tartibda, Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotga o'tish orqali mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish amaliy jihatdan muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Energiyaga qaramlik va xavfsizlik muammosi O'zbekiston Respublikasining energetika balansida an'anaviy yoqilg'ilarga (tabiiy gaz, ko'mir) katta ulush bo'lishi muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, 2019 yilda mamlakatdagi elektr energiyasi ishlab chiqarishining ~85 % termik gaz manbalariga tayanib amalga oshirilgan. Shu sababli, energetika diversifikatsiyasi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini kenglatish davlat va mintaqalar darajasida strategik jihatdan zaruriy chora hisoblanadi. Demak bu vaziyatda yashil iqtisodiyotga o'tish eng samarali yechim hisoblanadi.

"Yashil iqtisodiyot" kontseptsiyasining ildizlari va ana shu yondashuvga olib kelgan asosiy g'oyalar 1970–1990-yillardan boshlab paydo bo'lgan «barqaror rivojlanish» tushunchasiga borib taqaladi. Brundtland komissiyasining 1987-yilda e'lon qilingan Our Common Future<sup>12</sup> hisobotida "barqaror rivojlanish" ta'riflangan va bu atama keyinchalik yashil iqtisodiyot g'oyasini shakllanishiga poydevor bo'ldi.

Keyingi muhim burilish — 1989-yilda Pearce, Markandya va Barbier tomonidan taqdim etilgan Blueprint for a Green Economy<sup>13</sup>, bu hujjat "green economy" atamasini ilmiy-iqtisodiy tilga tushirdi va "atrof-muhitni hisobga olgan iqtisodiy qarorlar" konsepsiyasini rivojlantirdi.

2010-yillarda esa "yashil iqtisodiyot" kontsepti global siyosat maydoniga ko'tarildi: UNEPning 2011-yildagi Towards a Green Economy hisobotida yashil iqtisodiyot strategiyasi va uning investitsion imkoniyatlari bat afsil bayon etildi — ushbu hisobot Rio+20 jarayonida muhim hujjatga aylandi.

### 1-jadval

#### **Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasining rivojlanish bosqichlari<sup>14</sup>**

Yil	Bosqich / voqeа	Qisqacha izoh
1972	Stokholm konferensiysi	<a href="#"><u>Global atrof-muhit siyosatining boshlanish nuqtasi (UNEP v.b.).</u></a>
1987	<i>Our Common Future</i> (Brundtland)	<a href="#"><u>"Barqaror rivojlanish" ta'riflandi — yashil iqtisodiyot uchun nazariy poydevor.</u></a>
1989	<i>Blueprint for a Green Economy</i>	<a href="#"><u>"Green economy" atamasi va iqtisodiy argumentlar shakllandı.</u></a>

<sup>12</sup> Brundtland, G.H. et al., *Our Common Future* (World Commission on Environment and Development), 1987.

<sup>13</sup> Pearce, D., Markandya, A., Barbier, E., Blueprint for a Green Economy, 1989

<sup>14</sup> Mualif tomonidan ishlab chiqilgan





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



2008–2011	UNEP Green Economy Initiative; Rio+20	<u><a href="#">Yashil iqtisodiyot siyosat darajasiga ko'tarildi, keng ko'lamlı tavsiyalar chiqdi.</a></u>
2011	OECD Green Growth Strategy	<u><a href="#">O'Ichov va indikatorlar asosida Siyosat yo'riqnomalari (OECD).</a></u>
2015	SDGlar va Parij bitimi (iqlim)	<u><a href="#">Barqarorlik va iqlim maqsadlari siyosiy majburiyatga aylandi — yashil iqtisodiyot yo'nalişlarini mustahkamladi.</a></u>
2020–2024	Yashil investitsiyalar va rekord qo'shiluvlar (fotovoltaik, shamol)	<u><a href="#">Global qayta tiklanadigan quvvatlar tez sur'atlarda o'sdi</a></u>

1-jadvalda ko'rishimiz mumkinki yashil iqtisodiyot haqidagi konsepsiylar shakllanishi 1972-yilga borib taqaladi. Keyinchalik bu tushuncha faqat rivojlanib, kengayib va boshqa sohalar bilan integratsiyalashib bordi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiysi turli xalqaro tashkilotlar – UNEP, OECD, Jahon banki va boshqa institutlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjalarda keng ochib berilgan. Umuman olganda, yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Past karbonli rivojlanish
- Iqtisodiyotning barcha sohalarida uglerod chiqindilarini kamaytirish.

IRENA ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari global quvvatning 43% ini tashkil etgan va shu orqali 1,5 gigatonna CO<sub>2</sub> chiqindilarining oldi olingan.

- Resurslardan samarali foydalanish
- Energiya, suv va xomashyo sarako'ra, samaradorlikni oshirish orqali global iqtisodiyot yiliga 2,9 trillion AQSh dollari miqdorida foyda ko'rishi mumkin.
- Biologik xilma-xillik va ekotizimlarni saqlash
- Yashil iqtisodiyot tabiat kapitalini iqtisodiy tizimning ajralmas qismi sifatida ko'rashi.

UNEPning 2019-yil ma'lumotiga ko'ra, 60% ekotizim xizmatlari global miqyosda degradatsiyaga uchragan.

- Ijtimoiy inklyuzivlik va yangi ish o'rnlari
- Yashil iqtisodiyot yangi bandlik yaratishni rag'batlantiradi.

ILO 2023-yil ma'lumotiga ko'ra, yashil transformatsiya 2030-yilgacha 24 milliondan ortiq yangi ish o'rni yaratishi mumkin.

- Moliyaviy barqarorlik va yashil investitsiyalar
- Green Bonds (yashil obligatsiyalar) va boshqa moliyaviy vositalar orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash.

2023-yilda global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 2,5 trillion AQSh dollariga yetdi.

**Yashil iqtisodiyotning ustuvor yo'nalişlar.** UNEP, OECD va WB hujjalarda belgilangan ustuvor yo'nalişlar quyidagicha:



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



- Energetika sektori
- Qayta tiklanadigan manbalarga o'tish (quyosh, shamol, gidro va biomassa).

IEA 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda global elektr ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya ulushi 32% ga yetdi.

- Suv resurslari va qishloq xo'jaligi
- Suvni tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish va barqaror agrotexnika.

Jahon bankining 2022-yil hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyoda suv samaradorligini oshirish mintaqasi YAIMini 6–8% ga ko'tarishi mumkin.

- Sanoat va ishlab chiqarish
- "Yashil sanoat siyosati" orqali chiqindilarni kamaytirish va qayta ishslash.

OECDning 2020-yil ma'lumotiga ko'ra, "tsirkulyar iqtisodiyot" siyosati 2030-yilgacha 600 mlrd. yevro iqtisodiy samaradorlik beradi.

- Transport va infratuzilma
- Elektromobillar, jamoat transporti va "aqli shahar" konsepsiylari.

IEA, Global EV Outlooklarning ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda dunyoda elektromobillar soni 50 milliondan oshdi.

- Yashil moliya
- Yashil obligatsiyalar, karbon kreditlari va moliyaviy barqarorlik instrumentlari.

Climate Bonds Initiativega ko'ra 2024-yilda dunyo bo'yicha 600 mlrd. AQSh dollarlik yangi yashil obligatsiyalar chiqarilgan.

Yashil iqtisodiyotning tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Energiya va resurslardan samarali foydalanish, yangi yashil texnologiyalarning joriy etilishi va yashil moliya mexanizmlari mintaqaviy barqarorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot mintaqalar iqtisodiyotini barqaror, innovatsion va ijtimoiyadolatli yo'l bilan rivojlantiradi. U nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki atrof-muhitni muhofaza qilishni ham ta'minlaydi. Shunday qilib, yashil iqtisodiyot — bu kelajak iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi bo'lib, mintaqaviy barqarorlik va farovonlikning kafolati hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [https://iea.blob.core.windows.net/assets/5a73c058-1c4d-4731-8465-e25e5da3bd3f/SolarEnergyInUzbekistan\\_ARoadmap.pdf.com](https://iea.blob.core.windows.net/assets/5a73c058-1c4d-4731-8465-e25e5da3bd3f/SolarEnergyInUzbekistan_ARoadmap.pdf.com)
2. <https://www.iea.org/reports/solar-energy-policy-in-uzbekistan-a-roadmap/context-of-renewable-energy-in-uzbekistan.com>
3. <https://www.qashstat.uz/.com>





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



4. <https://www.power-technology.com/marketdata/power-plant-profile-nishon-solar-pv-project-uzbekistan.com>
5. Brundtland, G.H. et al., *Our Common Future* (World Commission on Environment and Development), 1987.
6. Pearce, D., Markandya, A., Barbier, E., Blueprint for a Green Economy, 1989

